


QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



QASHQADARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISH 2023- YIL YANVAR-DEKABR (DASTLABKI MA'LUMOT)





Tel.: (75)-221-32-36
www.qashstat.uz

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)


Bugungi kunda viloyatda 3 776 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 116 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,3 % i) Qarshi shahriga, 619 tasi (10,1 %) Kitob tumaniga, 544 tasi (8,9 %) Yakkabog' tumaniga, 453 tasi (7,4 %) Qarshi tumaniga va 450 tasi (7,4 %) G'uzor tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami faoliyat yuritayotgan



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalarda sanoat korxonalarining ulushi

Jami yangi tashkil etilgan



Qarshi sh.	140
G'uzor t.	110
Qarshi t.	92
Shahrisabiz sh.	67
Yakkabog' t.	65
Qamashi t.	64
Kitob t.	64
Shahrisabiz t.	58
Koson t.	48
Kasbi t.	42
Chiroqchi t.	39
Ko'kdala t.	32
Mirishkor t.	27
Nishon t.	22
Muborak t.	20
Dehqonobod t.	19
83	

● Faoliyat yuritayotgan




Yangi tashkil etilgan

Qashqadaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'mol mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 28 259,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishning fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon tumanida (50 975,9 ming so'm), G'uzor tumanida (17 350,3 ming so'm) hamda Qarshi shahrida (12 918,8 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (8 024,9 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi


8,0 mln. so'm



ming. so'mda o'sish sur'ati, % da


Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 22 132,9 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 78,3 % ni tashkil etdi.




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Nishon tumani (29,7 %), G'uzor tumani (13,5 %), Qarshi shahri (13,4 %) Qarshi tumani (7,2 %) hamda Kasbi tumani (5,8 %) hissasiga tog'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Kitob tumanida (118,8 %), Nishon tumanida (113,5 %) hamda Ko'kdala (108,5 %) tumanida kuzatildi.



yanvar-dekabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Shag'al, ming t.	40,4	47,5	7,1
Neft, ming t.	20,4	10,2	- 10,2
Tabiiy gaz, mln. kub.m	521,2	82,1	- 439,1
Gaz kondensati, ming t.	112,5	105,5	- 7,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat hududlar kesimida



Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22 132,9 mlrd. so’zni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 78,3 % ni tashkil etdi.


Nishon t.	123,4
5 422,6	
Muborak t.	117,9
511,1	
Kitob t.	114,5
1 189,5	
Ko’kdala t.	108,5
148,7	
Yakkabog’ t.	107,2
926,5	
Mirishkor t.	106,7
645,9	
Chiroqchi t.	106,6
764,5	
Koson t.	106,4
1 083,6	
Qamashi t.	105,9
780,8	
Shahrisabz sh.	102,8
452,1	
G’uzor t.	102,7
3 723,6	
Kasbi t.	102,3
1 628,3	
Qarshi t.	101,8
2 046,9	
Shahrisabz t.	101,7
470,8	
Qarshi sh.	94,0
1 418,1	
Dehqonobod t.	74,3
920,1	

mlrd. so’mda


FHI, % da




Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 % ni (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida – 0,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 14,9 % (21,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 23,5 % (4,5 %), quyi texnologiyali 39,5 % (48,5 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 0,9 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,1 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 52,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 27,1 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 118,2 %) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 11,6 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,2 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,6 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 378,6 ming tonna dizel yoqilg'isi (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,7 m), 59,5 ming tonna kalava ip (119,8 %), 2 287,7 ming litr aroq mahsulotlari (79,8 %) hamda 31,5 ming tonna yumshoq bug'doy va sepelta uni (27,1 %) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Paxta linti, ming t.	4,6	3,9	- 0,7
Aroq, ming litr.	2 865,5	2 287,7	- 577,8
Kalava ip, ming t.	51,6	59,5	7,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	116,0	31,5	- 84,5
Paxta tolasi, ming t.	74,7	81,3	6,6

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,1 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 52,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 17,9 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xom-ashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,0 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,1 m. ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 424,2 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,0 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,9 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 3 110,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 102,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 169,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 24,3 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 15,9 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 6 875,3 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 145,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 743,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 14,8 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4 195,4 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.

2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 103,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 96,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-dekabr oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 96,1 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 104,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-dekabr	2023-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektr energiya, mln.kVt.s	8 430,8	8 167,2	- 263,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	3 220,2	3 370,8	150,6

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish, suv quvurlari va taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 73,9 % hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 125,7 % ga teng ekanligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-dekabr	2023-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	14 420,6	118 153,4	106 732,8
Suvga ishlov berish, suv quvurlari va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	93 968,6	10 661,6	- 83 307,0

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 4 800,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,3 %, uning jami sanoatdagi ulushi 17,0 % ga to'g'ri keldi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 2 731,7 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 1,5 % ga oshdi.

2022- yilning shu davriga nisbatan viloyat bo'yicha o'rtacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Qarshi tumani (122,6 %), Kitob tumani (119,3 %) hamda Muborak (116,8 %) tumani korxonalari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 59,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 40,2 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 60,4 %*, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 39,6 %* ni tashkil etdi.



Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 101,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 95,7 % ga to'g'ri keldi.

* 2023- yil hisoblash metodikasi bo'yicha



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Iste'mol tovarlari – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.

Hududlar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 18,1 %, shuningdek, Chiroqchi tumani 11,4 %, Koson tumani 8,4 %, Yakkabog' tumani 7,7 % ekanligi kuzatildi.




Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol tovarlarining ulushi



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 363,2 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi shahrida – 2 981,3 ming so'mni, Shahrisabz shahrida – 2 548,7 ming so'mni, Muborak tumanida – 2 471,3 ming so'mni va Chiroqchi tumanida – 2 071,5 ming so'mni tashkil etdi.

yanvar-dekabr
ming. so'mda




Viloyatda aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarishi hajmi


1363,2 ming. so'm



yanvar-dekabr
o'sish sur'ati, % da




Qarshi t.



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 17,3 %, shuningdek, Chiroqchi tumani 12,1 % ni, Kasbi tumani 8,5 % ni va Koson tumani 8,3 % ni tashkil etdi.

yanvar-dekabr
mlrd.so'mda



Jami iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmidagi ulushi

40,2 %



yanvar-dekabr
o'sish sur'ati, % da



Qarshi t.	137,8
104,4	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qarshi sh.	135,2
333,7	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Dehqonobod t.	124,1
70,9	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Shahrisabz sh.	121,2
116,9	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Muborak t.	118,4
82,6	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Mirishkor t.	115,6
63,1	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Ko'kdala t.	112,4
51,9	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Kitob t.	110,5
88,5	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Chiroqchi t.	110,4
233,0	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Yakkabog' t.	107,9
112,8	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
G'uzor t.	102,6
84,8	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Koson t.	102,1
159,1	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Nishon t.	100,1
70,8	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qamashi t.	98,8
92,4	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Shahrisabz t.	98,6
99,0	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Kasbi t.	95,7
164,6	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●


● ● mlrd. so'mda

o'sish sur'ati, % da

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 19,7 % ni, Chiroqchi tumaniga 11,5 % va Koson tumaniga 8,9 % ekanligi kuzatildi.

yanvar-dekabr
mlrd.so'mda



Jami iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmidagi ulushi

59,8 %



yanvar-dekabr
o'sish sur'ati, % da




Qarshi t.	110,5
109,1	
Muborak t.	110,3
156,3	
Ko'kdala t.	108,4
81,3	
Kasbi t.	107,6
140,0	
Mirishkor t.	107,4
105,9	
Qamashi t.	104,6
124,2	
Koson t.	104,6
241,8	
Shahrisabz sh.	104,5
217,3	
Chiroqchi t.	102,5
314,5	
Kitob t.	102,4
114,3	
G'uzor t.	101,4
118,5	
Dehqonobod t.	98,7
80,9	
Shahrisabz t.	95,6
145,5	
Yakkabog' t.	95,4
154,3	
Nishon t.	85,7
90,2	
Qarshi sh.	81,4
537,6	

● mlrd. so'mda o'sish sur'ati, % da


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 331,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,4 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 23,6 % ni tashkil etgan.


yanvar-dekabr
mlrd.soʻmda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining
jami sanoat ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi



yanvar-dekabr
ulushi, % da



Koʻkdala t.	100,0
148,7	
Shahrisabz sh.	87,7
403,9	
Chiroqchi t.	71,2
595,4	
Shahrisabz t.	59,0
305,2	
Mirishkor t.	55,3
358,9	
Muborak t.	43,5
356,4	
Qamashi t.	39,8
313,0	
Koson t.	35,2
427,9	
Yakkabogʻ t.	34,3
318,6	
Kitob t.	31,0
409,0	
Qarshi sh.	30,2
1 140,8	
Kasbi t.	27,6
449,7	
Qarshi t.	24,6
504,4	
Dehqonobod t.	18,1
166,7	
Gʻuzor t.	6,5
249,1	
Nishon t.	2,2
183,6	

● mlrd. soʻmda Ulushi, % da

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 46 ta loyiha bo'yicha 6 162,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 93 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 239 ta yangi ish o'rinlari yaratildi

